

ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI  
YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

Sulaymonova Izzalatoy Qambarovna

*Farg'ona viloyati Dang'ara tumani 24-sonli maktabning  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annatsiya:** *Ushbu tavsiyada ona tili darslarini tashkil qilishda interfaol usullarning qo'llanilishi, interfaol o'yin turlari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol, interfaol o'yinlar, "To'g'ri-noto'g'ri" o'yini, "Ustunchalar" o'yini.*

Ona tili - millatning ruhi, uning or-nomusi, ma'naviy qiyofasi, orzu-umidlarning namunasidir. Ona tili millatning birligi va birdamligining timsolidir. U millatni yagona xalq sifatida o'z atrofida birlashtiradi va dunyoda borliqni ta'min etadi. Har bir millatning o'z Vatani, oilasi bo'lgani kabi uning jonajon va betakror ona tilisi ham bo'ladi. Inson uchun uning Vatani, ota-onasi, oilasi qanchalik qadrli bo'lsa, uning ona tili ham shu qadar aziz va muqaddas bo'ladi. Hattoki, go'dak ham o'z Vatanini, ota-onasini, dunyoni o'z ona tili orqali anglaydi va atay boshlaydi. Farzand tarbiyasida onaning o'rni beqiyos bo'lganidek, insonning hayotda o'z o'rnini topishida, kamolotga erishuvda tilning o'rni ulkan ahamiyatga ega. Shu bois tilni, onaga qiyoslab ona tili deb ataydilar. Til inson vujudiga qon-qoniga singib oqadi. Jamiki, ezgu fazilatlar, avvalo, ona allasi va ona tilining bebaho jozibasi orqali singadi. Inson qalbida ona tiliga nisbatan sof tuyg'u, mehr-muhabbat alanga oladi. O'quvchilar uchun shu ona tilimizga mehr uyg'otish uni qiyinchiliklarsiz, mukammal o'rganishlari uchun bugungi kundagi interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Interfaol metod turlari ko'p bo'lib, ularni dars mavzusining xususiyatlari hamda ko'zda tutilgan maqsadlarga muvofiq tanlanadi va tegishli tayyorgarlik ko'riladi.

Interfaol mashg'ulotda ishtirok etish uchun o'quvchilarning tayyorliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi, bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, mulqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini erkin bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat. Mashg'ulotda vaqtdan unumli foydalanish zarur shart hisoblanadi. Buning uchun zarur vositalarni to'g'ri tanlash, tayyorlash hamda mashg'ulot o'tkazuvchilar va ularning vazifalari aniq belgilangan bo'lishi lozim. Interfaol metodlar bilan an'anaviy ta'lim usullari orasida o'ziga xos farqlar mavjud bo'lib, har bir o'qituvchi bu farqlarni qiyoslashi, ularning bir-biriga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini darsni rejalashtirish va uni o'tkazish usullarini tanlashda to'g'ri hisobga olishi zarur.

O'quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish uchun interfaol o'yinlarning tashkil etilishi, yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzularni takrorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi hatto yoshi ulug' insonlar ham o'yin o'ynash orqali xotirasi mustahkam bo'lishini ko'p bor ta'kidlaydi. Interfaol metodlarning maqsadi ham yodlab olish, qo'llay olish, isbotlash qobiliyatini shakllantiradi. Masalan: "To'g'ri-noto'g'ri" o'yini. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma'lumotlarni aytib ketadi, o'quvchi faqat to'g'ri yoki noto'g'ri deb izohlab ketadi:

- O'zbek tiliga Davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktabrda berilgan. -To'g'ri.

- Men Vatanimni sevaman, O'zbekiston men uchun muqaddas. Gapda 3 ta ega mavjud. - Noto'g'ri, 2 ta men va O'zbekiston.

- Gap bo'laklari necha turga bo'linadi: 5 ta - Noto'g'ri 2 ta bosh va ikkinchi darajali bo'laklar

Savollar shu tariqa beriladi o'quvchi javobni noto'g'ri aytsa, o'qituvchi izohlab, misollar bilan isbotlab ketishi lozim. H va x tovushlarining farqini ajratishda, jarangli va jarangsiz undoshlarni eslab qolishda qo'llash ham maqsadga muvofiqdir.


Yana bir o'yin bu - "Ustunchalar" o'yini. Bu o'yinni sinfni uch guruhga ajratganimizda qo'llasak, hamma o'quvchining fikrlashiga ega bo'lamiz. Mavzu: "Sifat so'z turkumining ma'no turlari" Ma'no turlari ustunchalarga yozilib, plakat holida o'quvchilarga taqdim etiladi. O'quvchilar sifatning ma'no turlarini belgilangan vaqt mobaynida ustunchalarga yozishadi, va izohlashadi:

Maza-ta'm	Rang-tus	Xil-xususiyat	Hajm-o'lchov
Shirin	Qizil	Odobli	Dumaloq
Achchiq	Sariq	Erkatoy	Uzunchoq
Sho'r	Jigarrang	Bilimli	Katta
Nordon	Ko'kimtir	Chiroyli	Kichik

"Ustunchalar" o'yinidan morfologiya, sintaksis, fonetika bo'limlarini o'rganish va mustahkamlashda qo'llash mumkin.

"Chala xat" - metodidan o'qituvchilarimiz shoir va yozuvchilarimiz hayoti va ijodini, she'r va g'azallarini o'rganishda qo'llash mumkin. Sharti shuki, darsligimizda berilgan matn, g'azal va she'rlarning ba'zi joylarini tushurib qoldirasiz. Metodni qo'llashdan oldin esa mavzuni to'liq o'rganishni o'quvchilarga uy vazifa topshirig'i sifatida berasiz.

Asliy va nisbiy sifatlar mavzusi uchun "Venn diagrammasi" metodidan foydalanish mumkin.



"Venn diagrammasi"da o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilinadi, qiyoslanib qayta tushuntirilib o'rganiladi. Bu metoddan atoqli va turdosh otlar, Fe'l mayllari, ot yasovchi qo'shimchalar, sifat darajalari mavzusida ham foydalanish mumkin.

O'quvchilarni ona tili darsiga qiziqtirish uchun interfaol metodlarning tashkil etilishi, yangi mavzuni mustahkamlash, o'tilgan mavzularni takrorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: “Tushunchalar tahlili” metodi. Bunda o'qituvchi o'tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashga ma'lumotlarni aytib ketadi, O'quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o'quvchilar uning tahlilini yozishadi.

	Tushuncha	Tahlil
1.	Fonetika	Nutq tovushlarini o'rganuvchi va tahlil qiluvchi tilshunoslik bo'limi
2.	Ot	Kim?, nima?, qayer? so'roqlariga javob bo'lib, shaxs, narsa, va joy nomlarini anglatuvchi mustaqil so'z turkumi.
3.	Gap bo'laklari	Gap bo'laklari 2 xil bo'lib, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar. Sintaksis bo'limida o'rganiladi.

“**Rolli o'yin**”- metodidan adabiyot darslarida yozuvchilarimiz yozgan drammatik asarlarni dars jarayonida sahnalashtiriladi. Buning uchun o'quvchilardan asarni to'liq o'rganib chiqish talab qilinadi. Bu o'quvchilarda aktyorlik mahoratini shakllantiradigan metodlardan biridir.

“**Venn diagramma**”- bu solishtirma metod, Bu metod orqali yozuvchi va shoirlar hayoti, ular yozgan asarlar solishtiriladi. O'xshash va farqli jihatlari ko'ribchiqiladi. Metodning maqsadi o'quvchilarda topqirlikni, solishtirib o'qish, bilimlarni yanada oshirish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

“**Zanjir**”- metodi esa butun boshli sinf o'quvchilarini darsga jalb etishni ko'zda tutadi. Metodani qo'llashdan oldin indinga o'tiladigan mavzu uy vazifasi sifatida va mavzuda biror bir ma'lumot qolmagan holda o'quvchilarga tarqatma sifatida beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, bugungi kunda interfaol metodlarning ijobiy tomonlari juda ko'p. Uni qo'llash orqali mavzularni, ona tilimizni mukammal o'rganish mumkin. Shu bilan birga o'quvchi bolalikdan o'yinlarga qiziqadi va o'yinni eslab mavzularni yodlab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tilni sevish, uni ardoqlash, millatni sevish va uni qadrlash bilan teng hisoblanadi. Xalqimizning necha asrlik boy tarixi, ko'hna va serqirra madaniyati o'zbek tili ta'sirida shakllangan. Ulug' shoirimiz Alisher Navoiy shu tilda bebaho asarlar yaratib, dunyoni lol qoldirgan. Bu tilni asrash va uni jahondagi sara tillar qatorida bo'lishini ta'minlash biz uchun sharaf va g'urur belgisidir. Ona tilimizni yuksaklashiga biz pedagoglar ham munosib hissa qo'shaylik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Umumiy o'rta ta'limning ona tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent-2017.2.
2. N. Mahmudov, A. Nurmonova va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Ona tili. 124-126-betlar. Toshkent - 2017
3. Yo'ldosheva D. Ashurbayeva R. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.-T.: Turon Zamin Ziyos. 2018.
5. Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?>. “Ta'lim texnologiyalari”